



Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri

Karimova Gulzodaxon Ma'rufjon qizi –

Farg'ona shahar 37-maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxs tushunchasi, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rni hamda shaxsning barkamol bo'lib yetishishidagi eng muhim omillar haqida so'z yuritilgan. Shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonida ro'y beradi, inson tarbiyasi uning xalq baxt-saodati yo'lidagi bunyodkorlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, sotsial-iqtisodiy vazifalarini hal etishda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, shaxs, shaxs kamoloti, ijtimoiy muhit, irsiyat, oiladagi muhit.

Типы воспитания и их влияние на развитие личности

Аннотация. В статье рассматриваются понятие личности, роль образования в её формировании, важнейшие факторы гармоничного развития личности. Формирование личности происходит в процессе образования, а образование человека проявляется в его творческом труде на благо народа, в общественной жизни, в решении социально-экономических задач.

Ключевые слова: образование, воспитание, личность, личностное развитие, социальная среда, наследственность, семейная среда.

Types of upbringing and their impact on personal development

Annotation. *This article discusses the concept of personality, the role of education in the formation of a personality, and the most important factors in the harmonious development of a personality. The formation of a personality occurs in the process of education, and human education is manifested in his creative work for the happiness of the people, in social life, and in solving socio-economic tasks.*

Keywords: *education, upbringing, personality, personal development, social environment, heredity, family environment.*

KIRISH

Inson kamoloti, avvalo, tarbiya jarayoni orqali shakllanadi. Tarbiya - bu insonning ruhiy, axloqiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishiga qaratilgan uzluksiz va maqsadli faoliyatdir. Bugungi globallashuv sharoitida barkamol avlodni voyaga yetkazish jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Shu sababli tarbiyaning turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'sirini chuqur o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. arbiya - bu ijtimoiy hodisa bo'lib, u insonni jamiyat talablariga mos tarzda shakllantiradi. Tarbiya jarayonida insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, qadriyatlari, ma'naviy olami va xulq-atvori rivojlanadi. Tarbiya oilada boshlanib, ta'lim muassasalari va jamiyat muhitida davom etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, *"Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi – bu davlat siyosatining eng muhim yo'nalishidir"*. Demak, tarbiya nafaqat shaxsiy, balki davlat miqyosida ham ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisidir. Shaxs muayyan jamiyatning a'zosidir, shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi ularning xulqiga, munosabatlariga vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy - tarixiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy, yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog'liq. Muhit deganda shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqelik, hodisalar majmuyi tushuniladi. Bundan tashqari odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi.[1]

Tarbiya jarayonining ham o'ziga yarasha bir qancha metodlar va turlari mavjud. Tabiya turlarini kengroq talqinda o'rganadigan bo'lsak u quyidagilardan iborat.

1. Aqliy tarbiya
2. Jismoniy tarbiya
3. Axloqiy tarbiya
4. Iqtisodiy tarbiya
5. Mehnat tarbiyasi
6. Estetik tarbiya
7. Ekologik tarbiya

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.[2]

Respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi - inson shaxsining rivojlanishi hisoblanadi. Savol tug'iladi: Inson qachon barkamol, komil inson bo'ladi? Qachonki, u jismonan sog'lom, vijdonan pok, ma'naviyati yuksak bo'lsa. Bunda o'sib kelayotgan yosh avlodga beriladigan ta'lim-tarbiyaning o'рни beqiyosdir. Shu o'rinda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu fikri o'rinlidir: "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil - bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir... Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yoritiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq..."[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosi, shaxs rivojlanishi va kamolotining poydevoridir. Chunki tarbiyali va ma'rifatli insongina jamiyatda munosib o'rin topa oladi, hurmat va e'tiborga sazovor bo'ladi. Tarbiya tushunchasiga turlicha qarash va yondashuvlar mavjud jumladan K. D. Ushinskiy o'z faoliyatining aniq maqsadini ko'rmaydigan pedagogni qurilish materiallarini bir joyga yig'ib, undan nima olishni bilmaydigan me'morga qiyoslaydi. Pedagog yosh avlodga beriladigan bilim, ishbilarmonlik, malaka, tarbiyaviy tuyg'ularni biladi, tarbiyaviy ishlarni rejali va maqsadli olib boradi. Ya.A.Komenskiy "Tarbiyaning maqsad va vazifalari, uning ahamiyati, amalga oshirish yo'llari shaxsning jamiyatdagi mavqeiga qarab belgilanishi kerak", "Tarbiya insonni shakllantiradigan va takomillashtiruvchi uyg'un jarayondir".

Komenskiy ta'lim maqsadini quyidagi asosiy elementlarga ajratgan:

- insonga hamma narsani bilish – "ilmiy bilim";
- narsalarni va o'zini o'zlashtirish – "axloq";
- xudoga sig'inish, ob'ektlar – "diniy ta'lim";
- jismoniy salomatlik – "jismoniy tarbiya".

I.G.Pestalotsining fikricha, ta'limning maqsadi bolaga boshlang'ich ta'lim, mehnat, aqliy va jismoniy tarbiya berish hamda har tomonlama barkamol rivojlanishdir. K.D. Ushinskiy tarbiyasining maqsadi jamiyatga foydali insonparvar shaxsni tarbiyalashdan iborat. U axloqiy tarbiyani aqliy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydi. P.P.Blonskiyning tarbiyaviy maqsadi bolaga butun insoniyat va millat madaniyatini egallashga, shaxsning umuminsoniy ideallarini shakllantirishga yordam berishdir. Tarbiya tushunchasining lug'aviy ma'nosi ham ilm o'rgatish, odobaxloq o'rgatish, jazo berish, ovqatlantirish, tarbiyalash kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi. Tarbiya so'zi bugungi kunda qo'llanilayotgan va ko'proq axloqiy ma'noni anglatuvchi tuzilishdan tashqari o'zbek xalqi farzandlarini tarbiyalashda har qanday kognitiv rivojlanishni ifodalovchi tuzilishga ega. O'zbek xalqining ming yillik tajribaga asoslangan milliy o'zligi va ongini kelajak avlodlarga o'tkazish imkonini beruvchi an'anaviy ta'lim-tarbiya usullari mavjud. Oila ham, jamiyat ham tarbiya vazifasini birgalikda bajaradi. Tarbiya - bu ijtimoiy, ishlab chiqarish va madaniy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish uchun shaxsni ma'naviy va jismoniy shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli samarali jarayondir. "Avesto"dan tortib, Sino, Beruniy, Forobiy, Jomiy, Navoiy, Koshifiy, Ulug'bek, Ahmad Donish, Behbudiy, Ayniy,

Fitrat va boshqa mutafakkirlarimizning asarlarini odob va axloq to'plami deyish mumkin. Ta'kidlash joizki, ajdodlarimiz qadimdan yoshlarning ta'limtarbiyasiga alohida ahamiyat berishgan Har qanday ta'lim-tarbiyaning maqsad va maqsadi, eng avvalo, yuksak ma'naviy boylik, sof axloq va sog'lom tanani o'zida mujassam etgan shaxsni har tomonlama kamol toptirishdir.[4]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi turli tarbiya turlarining shaxs kamolotiga ta'sirini aniqlash va ularning uzviy bog'liqligini ilmiy asoslashdir. Tadqiqotda tarbiya jarayoni kompleks va tizimli jarayon sifatida ko'rib chiqildi, bunda oilaviy, maktab, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya shakllari bir-birini to'ldiruvchi, uzviy bog'langan tizim sifatida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, empirik va analitik yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Nazariy metodlar sifatida pedagogika, psixologiya, ma'naviyat va zamonaviy ta'lim nazariyasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar, milliy va xorijiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali tarbiya turlarining xususiyatlari, ularning shaxs rivojiga ta'siri va pedagogik samaradorligi aniqlanib, turli yondashuvlar solishtirildi. Empirik metodlar sifatida so'rovnomalar, intervyular va kuzatish ishlari o'tkazildi. Oilalar, maktab pedagoglari va yoshlar orasida tarbiya jarayonining samaradorligi va turli tarbiya shakllarining shaxs kamolotiga ta'siri o'rganildi. Shu bilan birga, tarbiyaviy mashg'ulotlar va darslarda o'quvchilarning xulq-atvori, axloqiy qadriyatlarni qabul qilishi va faoliyati kuzatildi.

Amaliy tajribalar orqali tarbiya turlarining uzviyligi va ularning shaxs rivojiga ta'siri sinovdan o'tkazildi, olingan ma'lumotlar sifat jihatdan tahlil qilinib, natijalar diagramma va jadval yordamida vizual tarzda ifodalandi. Tadqiqotda integral yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilindi, ya'ni oilaviy, maktab va ijtimoiy muhitdagi tarbiya shakllari bir-birini to'ldiruvchi tarzda o'rganildi. Shaxs kamolotini baholashda ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy va ijtimoiy jihatlar inobatga olindi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslangan va tizimli bo'lishini, shuningdek, turli tarbiya shakllarining shaxs rivojiga ta'sirini kompleks va uzviy tarzda aniqlash imkonini beradi hamda pedagogik amaliyotda samarali qo'llash uchun zarur tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxs kamoloti va barkamol insonni tarbiyalash jarayonida turli tarbiya turlari o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi rol o'ynaydi. Oilaviy tarbiya shaxsning dastlabki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini shakllantiruvchi asos sifatida ahamiyatlidir, chunki oilada berilgan tarbiya me'yorlari, odob-axloq qoidalari va qadriyatlar bolaning ongida mustahkamlanadi. Shu bilan birga, maktab tarbiyasi va pedagogik faoliyat o'quvchining bilim, ko'nikma va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, bu esa shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati va ijodiy salohiyatini oshiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsning axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi, unga odob-axloq me'yorlari, adolat, mas'uliyat va mehr-oqibat kabi qadriyatlarni singdiradi. Estetik tarbiya esa shaxsning go'zallik va san'atga bo'lgan qiziqishini, ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi, jismoniy tarbiya esa sog'lom turmush tarzini shakllantirib, insonning jismoniy va ruhiy barqarorligini ta'minlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tarbiya turlarining uyg'un va uzviy amalga oshirilishi shaxsda ma'naviy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan barkamol insonni shakllantirishga imkon yaratadi.

Muhokama natijasida aniqlanishicha, tarbiya jarayonida kompleks yondashuv qo'llanilganda shaxsning ijtimoiy qobiliyatlari va axloqiy fazilatlarini mustahkamlanadi, oilaviy va maktab muhitdagi pedagogik metodlar bir-birini to'ldirib, shaxsni jamiyatga mas'uliyatli, sog'lom va ijodiy faol inson sifatida tayyorlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot

natijalari ko'rsatadiki, tarbiyaviy jarayonda faqat bir turdagi yondashuvga tayanish shaxs kamolotini to'liq ta'minlay olmaydi. Shuning uchun pedagogik amaliyotda tarbiya turlarining uzviy bog'liqligi, integratsiyasi va doimiy monitoringi alohida e'tibor talab qiladi. Shaxs kamolotini ta'minlashda tarbiya turlarining o'zaro uyg'unligi, ularning kompleks va tizimli amalga oshirilishi eng samarali yondashuv hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda oilaviy tarbiya, maktab ta'limi, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyani birlashtirish orqali barkamol insonni shakllantirish imkoniyatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ma'naviy barkamol, komil insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma'naviyatli, ya'ni ma'naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulqatvor normalari, ahloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar. Komil inson tushunchasi ma'naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ma'naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak, ma'naviy barkamollikka intilish – bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Zero, qayd qilib o'tilganidek tarbiyaijtimoiy hayotning zaruriy kategoriyasi sifatida jamiyat va shaxsning yanada rivojlanishi, mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarini, mehnat jarayonlarini, insonning o'zini, uning ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi kuch sifatida ishtirok etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika", –2018.
2. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T. "Ma'naviyat", –2008.
3. F.O'ljayevna Erta bolalik ta'limida steam yondashuvining afzalliklari //International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. 129-136, –2025.
4. F.O'ljayevna Technology for developing intellectual competence of future teachers based on an innovative approach //Multidisciplinary Journal of Science and Technology.– T; 5. – №. 3. – C. 566-570, – 2025.
5. B.Axmedov Ta'lim va tarbiya nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, –2018.
6. S.Karimov Shaxs kamoloti va pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, –2020.
7. M.Qodirov Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodikasi. Toshkent: Pedagogika nashriyoti, –2019.
8. R.Islomov Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillari. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, –2017.
9. U.Brandenburg Mapping Internationalization in Education: Principles and Practice. Berlin: Springer, –2017.